

2021

"Yoshlar daftari jamg'armasi"  
ko'rsatkichi to'g'risida ma'lumot

2022-yil boshidagi qoldiq:  
70,478 mlrd.

Tushum:  
101,807 mlrd.

Xarajat:  
65,474 mlrd.

Qolgan mablag':  
106,812 mlrd.

# YOSHLAR OVOZI

## BIZ - KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,  
adabiy-badiiy  
gazeta

# 18 (16471)  
2022-yil, 6-aprel  
chorshanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Mahallada yoshlar yetakchisi  
5-bet

Yetakchi - yoshlar  
uchun ko'makchi

Sinab ko'r!  
6-bet

Stipendiya  
olmoqchimisiz?

Inson o'zing...  
7-bet

To'xta, nafsim,  
to'xta!




Foto: Husniddin ISAKOV

# "SPARK" BUXOROGA KETDI

"YOSH KITOBXON"

batafsil  
2-betda  
→





# “YOSH KITOBXON” “SPARK” BUXOROGA KETDI

**Muhlisa NASIMOVA,**  
tanlov g'olibi, Prezident sovg'asi –  
“Spark” avtomashinasi sohibi:

– Bu tanlovga uchinchi yil qatnashdim va g'oliblikni qo'lga kiritdim. Juda ko'p mehnat qildim, mehnatlarim samarasi bugun ko'rinib turibdi. Bu tanlov yoshlar orasiga shiddat bilan kirib bordi va ko'nglidan joy oldi. Tanlov tashkilotchilariga, yoshlar orasida kitobxonlik muhitini yaratib bergani uchun Prezidentimizga rahmat aytaman. Bu tanlov natijasida yurtimizda ziyolilar ko'payadi, yurtimizning ravnaqiga hissa qo'shadigan yoshlar yetishib chiqadi. Xudoga shukur, bugun oliy sovrinni qo'lga kiritdim. “Spark” meniki emas, meni har doim qo'llab kelgan ota-jonimnik! Buning uchun ota-onamga rahmat aytaman.



**Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish maqsadida 2017-yildan beri “Yosh kitobxon” tanlovi o'tkazib kelinmoqda. Ayni kunlarda tanlovning bu yilgi respublika bosqichi ayni qizg'in pallaga kirdi.**

Jumladan, kecha 10-14 yosh toifasidagi kitobxonlar bahsi o'z yakuniga yetdi.

Yoshlar ishlari agentligi qator tashkilotlar bilan hamkorlikda o'tkazayotgan tanlovning bu yosh toifasidagi respublika bosqichida barcha hududlardan jami 14 nafar salohiyatli, turli chig'iriqlardan o'tib kelgan yoshlar ishtirok etdi. O'z bilimi, intellektual salohiyati bilan barchaga o'rnak bo'ladigan o'g'il-qizlar har bir shart uchun jiddiy tayyorlangani ularning ishtiroqidan bilinib turdi. Ishitirokchilar orasida ketma-ket ikkinchi-uchinchi yil ishtirok etayotganlar borligi tanlovning yuqori darajada o'tishini ta'minladi. Hech bir ishtirokchi taslim bo'lishni istamay, oxirgi imkoniyat qolguncha bahs olib bordi.

Musobaqada achchiq ko'z yoshlariga ham guvoh bo'ldik. Tadbir yakunida ishtirokchilarning fikrlari ham eshitildi. Toshkent

viloyati vakili Shodiyor Ermakbayevning so'zlari barchaning e'tiborini tortdi:

– Barcha tashkilotchilarga katta rahmat. Bobomga “Spark” yutib bermoqchi edim, nasib qilmadi. Lekin bundan xafa emasman. Muhtaram Prezidentimizdan menga kitoblarni topishda yaqindan yordam bergan o'z hududimdagi axborot-resurs markazini zamonaviy texnikalar bilan ta'minlashda yordam berishlarini iltimos qilar edim.

Tanlovda birinchi o'rin 437 ball jamg'argan Buxoro viloyati vakili Muhlisa Nasimovaga nasib etdi. Muhlisa o'tgan mavsumda ham ishtirok etgan va 6-o'rinni qo'lga kiritgandi. Xorazm viloyati vakili Niginabonu Xojiqurbonova 415,4 ball bilan ikkinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Uchinchi o'ringa Farg'ona viloyati vakili Nurbek Mirzausmonov sazovor bo'ldi. U jami 390 ball to'pladi.

G'olib va sovrindorlarning tanlov haqidagi fikrlari bilan qiziqdik.

**Nurbek  
MIRZAUSMONOV,**  
3-o'rin sovrindori:

– Bu yilgi tanlov o'zining shukuhi bilan, shartlarining o'zgachaligi bilan ajralib turdi. Tanlovda ikkinchi marta ishtirok etyapman. Birinchi safar respublika bosqichiga yetib kela olmagandim. Tushkunlikka tushgandim, yaqinlarimning ko'magi bilan o'zimni qo'lga oldim va bu yil sovrindorlar qatorida bo'ldim.

Tanlovda turli yo'nalishlardan savollar berildi. Albert Eynshteynning bir gapini bor: “Hayot velosipedga o'xshaydi. Sen qiynalyapsanmi, demak sen ko'tarilmoqdasan. Osonlashmoqdammi, sen qulayapsan”. Men bu musobaqada o'z xato va kamchiliklarimni tushunib yetdim. Inson o'z xatosini tan olib, to'g'ri xulosa chiqarib harakat qilsa, shunda yuqoriga ko'tarila oladi.

10-14 yosh toifasida tanlovning respublika bosqichi g'olib va sovrindorlari quyidagicha taqdirlandi:

1-o'rin – Prezident sovg'asi – “Spark” avtomashinasi, maxsus statuetka, diplom hamda hamkor tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan kitoblar jamlanmasi;

2-o'rin – 50 million so'm pul mukofoti, maxsus statuetka, diplom hamda hamkor tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan kitoblar jamlanmasi;

3-o'rin – 30 million so'm pul mukofoti, maxsus statuetka, diplom hamda hamkor tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan kitoblar jamlanmasi.

Respublika bosqichida ishtirok etgan qolgan barcha ishtirokchilarga 10 million so'mdan pul mukofoti taqdim etildi.

**Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,**  
“Yoshlar ovozi” muxbiri



# IJARA UY BALOSI

TALABA XAYOLIDA YUZTA TASHVISH:

MUSTAQIL ISH

ORALIQ NAZORAT


YAKUNIY NAZORAT

FORMA

DAVOMAT

AMALIYOT

VA ...



Ammo yana bir muammo bor-ki, taroziga qo'ysangiz, yuqoridagilardan toshi og'ir keladi. Bu ijara uy muammasi. "Talabaga uy yo'q!", "Studentlar bezovta qilishmasin!" kabi e'lonlarga ko'zi tushgan talibi ilm ko'rib ko'rmaganga oladi. Boshqa nima ham qilsin?! Toshkentdek shahri azimda kvartira topish osonmi?!

Bir amallab maklerlarning "beg'araz" yordami bilan topilgan uyning ham haqini bir kundan kechiktirmay to'lash shart. Pul ham

to'lanar, ammo talabaga munosabat o'zgarib qolaveradi. Hatto, ovqatlanib o'tirganda ham ijara uy muammolaridan chalg'iy olmayotgan tengdoshlarimga qarab o'ylanib qoldim.

Prezident bu sohaga tegishli qarorni imzolagani, qaror talabalarga katta imkoniyatlar eshigini ochishi mumkinligini o'ylab quvonamiz. "Talaba ham odam qatoriga kiradi, shekilli" deb o'zaro hazillashamiz. Afsuski, ayrim qaror-

larning ijrosi ba'zan juda qiyindek ko'rinadi. Mana, ijara shartnomasi masalasini olaylik!

Aslida talabalar hayotini yengillashtirish, uzoq viloyatdan kelib, shartnoma asosida tahsil olayotgan talibi ilmlarning eng o'tkir muammasini yechishga qaratilgan tashabbus alal oqibat talaba uchun yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Keling, holatni birgalikda tahlil qilamiz: ijara beruvchi va ijara turuvchi o'rtasida tuziladigan ijara shartnomasi soliq organlarida ro'yxatdan o'tkazilishi kerak. Shundan so'ng ijara beruvchi shaxs har oyning o'n beshinchi sanasidan kechiktirmay mol-mulk solig'ini to'lashi shart. Bunda ko'chmas mulkni ijara olgan talabaga soliq majburiyati yuklatilmaydi, zinhor. Shartnoma tuzilib, OTM-ga taqdim etilgach, ijara pulining muayyan qismi davlat budjeti hisobidan qoplab beriladi.

Afsuski, goh shartnoma tuzishda, goh ijara pulini qoplab berishda yuzaga kelayotgan noqulaylik

va chalkashliklar sabab talabaning quvunchi uzoqqa cho'zilmadi. Gap shundaki, ko'pchilik mulkdorlar o'z daromadlari oshkor bo'lishini (xatga tushding - o'tga tushding!), yana har oy ortiqcha chiqim qilib, soliq to'lashni istamaydi. Eng avvalo, uyini talabaga ijara beradiganlar juda kam. Borlari ham ko'pincha abgor holatdagi - yashash uchun sharoitlari yetarli bo'lmagan uy-joylardir.

Ijara shartnomasi tuzilmasa, ijara puli uchun kompensatsiya berilmaydi!

Xullas, talabaga imkoniyat bor-u, undan foydalanish juda qiyin. Oqibatda yengillik yaratishi kerak bo'lgan huquqiy hujjatlar risoladagidek "ishlamayapti".

Balki bu kabi holatlarning oldini olish va talabaning huquqlarini himoya qilishga yordam beradigan biror tashkilot tuzish vaqti kelingandir, hurmatli mutasaddilar?..

Ziyoda RAHIMBOYEVA

## FORUM

### KEGAYLILIK YOSHLARGA MOTIVATSIYA BERDI

Dovud ABIBULLAYEV,  
O'zA muxbiri

Maqsad HABIBULLAYEV  
olgan suratlari.

Andijon viloyati hokimi Shuhratbek Abdurahmonov rahbarligidagi delegatsiyaning Qoraqalpog'iston Respublikasiga tashrifi doirasida Kegayli tumani markaziy o'yingohida Yoshlar forumi o'tkazildi.

Dastlab fuqarolar yig'inlari yoshlari o'rtasida o'tkazilgan Andijon viloyati hokimi kubogi uchun "Zakovat" intellektual o'yini g'oliblari taqdirlandi. Birinchi o'rinni egallagan "Oqtuba" ovul fuqarolar yig'ini yoshlari Andijon viloyatiga sayohat uchun bepul yo'llanmani qo'lga kiritdi.

Shuningdek, umumta'lim maktablarining 9-11-sinf o'quvchilari o'rtasida Andijon viloyati hokimi sovrini uchun matematika fanidan o'tkazilgan olimpiada g'oliblari ham aniqlandi. Ular noutbuk, planшет bilan taqdirlandi.

Futbol bo'yicha mahalla yoshlari o'rtasida Andijon viloyati hokimi



kubogi uchun o'tkazilgan musobaqa g'oliblari ham munosib rag'batlantirildi. Unda "Jilo'an jip" mahalla fuqarolar yig'ini jamoasi birinchi o'rinni egallab, viloyat hokimi kubogi sohibi bo'ldi. Ikkinchi o'rinni "Juzim bag" ovul fuqarolar yig'ini, uchinchi o'rinni "Obod makon" mahalla fuqarolar yig'ini jamoasi qo'lga kiritdi. Birinchi o'rinni egallagan jamoaga 100 million, ikkinchi o'rinni egallagan jamoaga 50 million, uchinchi o'rinni egallagan jamoaga 25 million so'm pul mukofoti berildi. Bundan tashqari, mahallalardagi yoshlar yetakchilariga sport kiyimlari, tuman bolalar va o'smirlar sport maktabiga 50 million so'mlik sport inventarlari topshirildi.

Sovg'alarni Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengisi Raisi M. Kamalov, Andijon viloyati hokimi Sh. Abdurahmonov tantanali ravishda topshirdi.

## BIR SUTKADA 13 000 KISHI "YANGI" COVID BILAN KASALLANDI



OAV Xitoyning Shanxay shahrida koronavirusning Stells omikron nomli yangi shtammi keng tarqalganligidan ogohlantirmoqda. Kasallikka qarshi kurashish uchun 10 000 dan ziyod shifokorlar jalb qilingan va shaharning barcha aholisi test topshirishi lozim.

**Eslatib o'tamiz:**  
Shanxayda 26 milliondan ziyod aholi yashaydi.



“YOSHLAR OLIMPIADASI” RESPUBLIKA SPORT MUSOBAQASI



JAMOAVIY

YAKKA YOKI JAMOAVIY

YAKKA



FUTBOL

11 NAFAF  
O'G'IL BOLALAR  
27-30 YOSHGACHA



MINI FUTBOL

5 NAFAF  
O'G'IL VA QIZ BOLALAR  
12-30 YOSHGACHA



VOLEYBOL

6 NAFAF  
QIZ BOLALAR  
17-30 YOSHGACHA



STRITBOL

3 NAFAF  
O'G'IL BOLALAR  
17-30 YOSHGACHA



YENGIL ATLETIKA

3 NAFAF  
O'G'IL BOLALAR  
17-30 YOSHGACHA



STREET WORKOUT

O'G'IL BOLALAR 4 TA YOSH  
TOIFASIDA (12-16 YOSH, 17-21 YOSH,  
22-26 YOSH VA 27-30 YOSH)



SHAXMAT VA SHASHKA

QIZ VA O'G'IL BOLALAR  
4 TA YOSH TOIFASIDA  
(12-16 YOSH, 17-21 YOSH,  
22-26 YOSH VA 27-30 YOSH)



BADMINTON

1 NAPARDAN  
QIZ VA O'G'IL BOLALAR  
17-30 YOSHGACHA



STOL TENNIS

QIZ VA O'G'IL BOLALAR  
3 TA YOSH TOIFASIDA  
(17-21 YOSH, 22-26 YOSH  
VA 27-30 YOSH)

MAS'UL VAZIRLIK VA IDORALAR



SPORT FEDERATSIYALARI

SPORT MUSOBAQA BOSQIHLARI, O'TKAZILADIGAN MUDDATI VA JOYI

MAHALLA BOSQIHI	7-16-APREL	MAHALLADAGI Tatim musakaslati yoki sport maydonida
SEKTOR BOSQIHI	17-26-APREL	SEKTORDAGI Tatim musakaslati yoki sport maydonida
TUMAN (SHAHAR) BOSQIHI	28-APREL-7-MAY	SPORT maydonida
HUUDUY BOSQIHI	10-24-MAY	MARKAZIY sport maydonida
RESPUBLIKA BOSQIHI	10-20-MAY	REJA asosida

9 ta sport turi bo'yicha mahallalardagi ko'chatlar kesimida jami **7,5 MILLION** dan ortiq yoshlar ishtirok etishi rejalashtirilmoqda.

Taniyovda ishtirokchilar @YOSHLARMUROJAATI BOT orqali ro'yxatdan o'tadi

Xarajatlari hududiy "YOSHLAR DAFTARI" jamg'arimasidan ajratiladigan mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi

1 MAHALLA BOSQIHI

7-16-APREL

- Ko'chatlar (ko'p qavatli uylar) kesimida jamoa yoki yakka ishtirokchi teleqramdagi @yoshlarmurojaati\_bot yoki mahalla yetakchisi orqali ro'yxatdan o'tadi.
- Musobaqani tashkil etishda mahalladagi yoshlar yetakchisiga bevosita maktab jamiyati tarbiya tani o'qituvchisi, bolalar va o'smirlar sport maktablari, olimpiya va paraliimpiya kollejlari murabbiylari ko'maklashadi.
- Mahalla bosqichida g'olib bo'lgan jamoa (yoki ishtirokchi) keyingi bosqichga yo'llanmani qo'lga kiritadi. Keyingi bosqichda mahallaning mo'hir o'yinchilaridan iborat terma jamoa shakllantirishga ruxsati etiladi (kelishuv asosida).

2 SEKTOR BOSQIHI

17-26-APREL

- Mahalla bosqichida g'olib bo'lgan jamoa yoki yakka ishtirokchilar sektor bosqichida o'zaro bellashadi.
- Sport musobaqasi amaldagi xalqaro olimpiya qoidalariga asosida o'tkaziladi.
- Har bir sport turi bo'yicha 1-2-3-o'rinlarni qo'lga kiritgan ishtirokchilar keyingi bosqichga yo'llanmani qo'lga kiritadi.
  - Izoh: Mahalla bosqichidagi terma jamoalar tarkibi sport musobaqasining yakuniy bosqichiga qadar o'zgartirishi mumkin emas.

3 TUMAN (SHAHAR) BOSQIHI

28-APREL - 7-MAY

- Sektor bosqichida g'olib bo'lgan jamoa yoki yakka ishtirokchi tuman (shahar) bosqichida o'zaro bellashadi.
- Har bir sport turi bo'yicha 1-o'rinni qo'lga kiritgan jamoaviy yoki yakka tartibdagi ishtirokchilar keyingi bosqichga yo'llanmani qo'lga kiritadi.

4 HUUDUY BOSQIHI

10-24-MAY

- Tuman (shahar) bosqichida g'olib bo'lgan jamoa hududiy bosqichida o'zaro bellashadi.
- Har bir sport turi bo'yicha 1-o'rinni qo'lga kiritgan jamoaviy yoki yakka tartibdagi ishtirokchilar keyingi bosqichga yo'llanmani qo'lga kiritadi.
- Bu bosqich hududidagi katta sport maydonlarida sport bayrami sifatida yakunlanadi.

5 10-20-IYUN  
RESPUBLIKA BOSQIHI

- Hududiy bosqichida g'olib bo'lgan jamoalar respublika bosqichida o'zaro bellashadi.
- Har bir sport turi bo'yicha 1-2-3-o'rinlarni qo'lga kiritgan jamoaviy yoki yakka tartibdagi ishtirokchilar tantanali ravishda taqdirlanadi.

SPORT TURLARI

- FUTBOL
- MINI FUTBOL
- VOLEYBOL
- YENGIL ATLETIKA
- STRITBOL
- SHAXMAT VA SHASHKA
- BADMINTON
- STOL TENNIS
- STREET WORKOUT

SPORT TURLARI	12-16 YOSH		17-21 YOSH		22-26 YOSH		27-30 YOSH		JAMI	SHUNDAN AYOLLAR
	ERKAKLAR	AYOLLAR	ERKAKLAR	AYOLLAR	ERKAKLAR	AYOLLAR	ERKAKLAR	AYOLLAR		
FUTBOL							11		11	0
MINI FUTBOL	5		5		5	5			20	10
VOLEYBOL			6		6		6		18	18
YENGIL ATLETIKA			3		3		3		9	0
STRITBOL			3		3		3		9	0
SHAXMAT VA SHASHKA	2	2	2	2	2	2	2	2	16	8
BADMINTON			1	1	1	1	1	1	6	3
STOL TENNIS			1	1	1	1	1	1	6	3
STREET WORKOUT	3		3		3		3		12	0
<b>JAMI</b>	10	2	13	15	13	15	18	10	107	42
	12		28		28		28			



# YETAKCHI - YOSHLAR UCHUN KO'MAKCHI



**Radxa  
XUDAYBERGANOVA,**  
Xorazm viloyati Urganch tumani-  
dagi "Turkmanlar" mahallasi  
yoshlar yetakchisi

sil olmoqda. Yoshlari-  
mizning 63 nafari 10 yil-  
ga mo'ljallangan ekin  
yeri bilan ta'minlandi.  
11 nafari tadbir-  
korlik bo'yicha  
o'quvlarda qat-  
nashmoqda, ya-  
na tikuvchilikka  
qiziqishi bor bir  
nechta qizlarni ma-  
hallamizdagi "Nurtob"  
tikuvchilik sexiga ish-  
ga joyladim. Shuningdek,  
3 nafar yosh subsidiya olib,  
ish boshladi. Oliy o'quv yur-  
tida ta'lim olayotgan yoshlar  
ham e'tiborimizdan chetda  
qolayotgani yo'q. Ular bilan  
suhbat davomida 3 nafarini  
haqiqatdan yordamga muh-  
toj deb topdim, hozir ularning kon-  
trakt pullari to'lab berildi.

Mahallada "Yoshlarimizning  
bo'sh payti - yetakchining ish  
payti" tamoyili asosida yoshlar-  
ning bo'sh vaqtini mazmunli tash-  
kil etish, milliy xalq o'yinlari va  
sport turlarini yoshlar orasida om-  
malashtirish, Besh muhim tashab-  
bus loyihalari, yoshlar festivallari  
va boshqa madaniy-ma'rifiy tadbir-  
larni amalga oshirish maqsa-  
dida har kuni soat 16:00 dan 23:00  
gacha tadbirlar o'tkazib boryap-  
miz.

Mahallamizda ma'naviyat va ki-  
tobxonlikni targ'ib qilish borasida -  
"Zakovat" musobaqasi, "Quvnoqlar  
va zukkolar", "Zukko kitobxon", "Yosh  
kitobxon", "Yosh kitobxon oila", "Xo-  
rijiy tillar bilimdoni" va "Yosh polig-  
lot" tanlovlari hamda "Munozara"  
intellektual va milliy xalq o'yinlarini  
tashkil etib kelyapmiz.

**T**umanimizda 60 ta mahalla  
bor. Barchasida yoshlar yetakchilari  
faoliyat boshladi. Men "Turkmanlar"  
mahallasi yoshlar yetakchisiman.

Faoliyatimning ilk kunlari-  
danaoq "Yoshlar balansi"ni shakl-  
lantirish, yoshlar to'g'risidagi  
zarur ma'lumotlarni "Yoshlar daf-  
tari" va "Yoshlar portali" elektron  
platformalariga kiritib borish, ular  
bilan samarali ish tashkil qilish,  
mahallalarda yoshlarning bo'sh  
vaqtini mazmunli o'tkazish, yosh-  
lar orasida sog'lom turmush tar-  
zini targ'ib qilishda sport muso-  
baqalari hamda tanlovlarni  
o'tkazishga alohida ahamiyat  
berib kelyapmiz.

Mahallamizda 4545 nafar aholi  
bo'lib, shulardan 18 yoshdan 30 yosh-  
gacha bo'lgan yoshlar 1026 nafarni  
tashkil etadi. Ular bilan suhbat qilib  
yaqindan tanishib, 133 nafari ishlash  
istagida ekanligini aniqladim.

Ayni paytda 42 nafar yosh im-  
tiyozli ravishda haydovchilik gu-  
vohnomasi olishi uchun "Vatan-  
parvar" tashkiloti Urganch tuman  
o'quv sport texnika klubida tah-

**Go'zal  
RO'ZIBOYEVA:**

**MAHALLAMIZDA  
4545 NAFAR AHOLI  
BO'LIB, SHULARDAN  
18 YOSH DAN 30  
YOSHGACHA BO'LGAN  
YOSHLAR 1026 NAFARNI  
TASHKIL ETADI.  
ULARNING 133 NAFARI  
ISHLASH ISTAGIDA.**



- Men oilada katta farzand-  
man. Otam vafot etgan, onamning  
sog'ligi yaxshi bo'lmagani uchun  
hozir ro'zg'orni yuritish mening  
zimmamda. Shu kungacha bo-  
zorda ham ishladim, dalada ham  
mehnat qildim, bandlik markazlari-  
dan ham ish qidirdim. Ammo hech  
bir tayinli ishning boshidan tutol-  
madim.

Kasb-hunar kollejini tikuvchilik  
yo'nalishi bo'yicha bitirganman. Ti-  
kuvchilikni yaxshi bilaman. Lekin tikuv  
 mashinasi olish uchun mablag'imiz  
yo'q edi. Mahallamizda yoshlar  
yetakchisi tayinlangandan keyin  
ish izlayotganimni aytib, yordam  
so'radim. U menga subsidiya asosi-  
da tikuv mashinasi olishni taklif qildi.  
Bundan juda xursand bo'ldim. Saba-  
bi uyda o'tirib daromad qilish orzum  
edi. O'shanda onamga uy ishlarida  
yordam bera olaman. Hozir uyda  
ishlab daromad topyapman.

**Shohruh  
SAFARBOYEV:**

- Mahallamiz yoshlar yetak-  
chisi uyimizga keldi. Unga ishlash  
istagim borligini aytdim. Hovli-  
mizda issiqxonamiz bo'lib oilaviy  
dehqonchilik bilan shug'ullanamiz.  
Dehqonchilikning sir-asrorini yax-  
shi bilaman. Shu bois yetakchi va  
mahalladagi hakim yordamchisi  
birgallikda menga 12 sotix yer tak-  
lif qildi. Bu yerda 10 yil davomida  
dehqonchilik qilishim mumkinligini  
aytdi. Bu taklif menga juda ma'qul  
bo'ldi. Endi u yerda poliz ekinlarini  
yetishtirishni o'ylab turibman. Hozir  
yerni ekinga tayyorlayapman.

# 177

## IMKONIYAT

**Prezidentimizning 2019-yil 28-no-  
yabrdagi "Ipoteka krediti mexa-  
nizmlarini takomillashtirishga  
oid qo'shimcha chora-tadbirlar  
to'g'risida"gi PF-5886-son farma-  
niga muvofiq yoshlarga uy-joy so-  
tib olish uchun subsidiya ajratiladi.**

Daromadli yuqori bo'lmagan va uy-joy sha-  
roitlarini yaxshilashga muhtoj bo'lganlarga  
ipoteka krediti bo'yicha dastlabki badal va foiz-  
larning bir qismini qoplash uchun Davlat bud-  
jetidan subsidiyalar to'lanadi.

**Imtiyozga da'vogarlar:**

- uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj oilalar;
- mehnat migrantlari;
- alohida namuna ko'rsatayotgan yosh oilalar;
- og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan ayollar;
- Mudofaa vazirligining harbiy xizmatchilari;
- Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchilari;
- Ichki ishlar organlari xodimlari.

**Imtiyozni taqdim etish tartibi va mud-  
datlari:**

Subsidiya olish uchun Davlat xizmatlari  
markazlari yoki Yagona interaktiv davlat  
xizmatlari portali orqali ariza berish lozim.  
Arizalar o'n besh kun ichida, qo'shimcha  
o'rganish talab etilganda esa, bir oygacha  
muddatda ko'rib chiqiladi.

Imtiyozlardan foydalanish uchun  
nomzodlarning yoshi chegaralanmagan.





# STIPENDIYA OLMOQCHIMISIZ?

**HARAKATNI  
HOZIRDAN  
BOSHLANG!**

Har qanday muvaffaqiyat, avval u haqida xayol qilish va orzu bilan boshlanadi. Biror bir yutuqqa erishgan insonni ko'rib, havasdan yuraklarimiz xapqirib ketadi. "Bu ishni qanday uddaladi ekan? Mening ham qo'limdan kelarmikin?" kabi savollar fikr-u xayolimizni chulg'ab oladi. Shunday vaziyatda "yo'q, menga yo'l bo'lsin... Men u kabi aqlli yoki u kabi tirishqoq emasman", qabilidagi xayollar muvaffaqiyat va bizning o'rtamizda tosh devorni barpo qiladiki, biror bir ulkan yutuqqa erishishimiz ikki, balki uch karra qiyinlashib ketadi.

**B**unday fikr hech bo'lmasa bir marotaba xayolidan o'tmaydigan insonning o'zi bo'lmasa kerak. Shunday vaziyatda Henri Fordning quyidagi so'zlari beixtiyor yodimga tushadi: "Men uddalayman" degan inson ham, "mening qo'limdan kelmaydi" degan inson ham, oxir-oqibat haq bo'lib chiqishadi". Uning so'zlari nihoyatda to'g'ri. Sababi, maqsadga yetish yo'lida o'ziga ishonch va bu yo'lidagi mashaqqatlardan cho'chimaslik, har qanday zahmatga tayyor turish muvaffaqiyatga erishishning ikki eng muhim omilidir. "Men uddalayman" deya miyamizga buyruq berishimiz va uni aniq maqsadga yo'naltirishimiz muvaffaqiyatning 50 foizini tashkil etadi.

Mening "Navoiy" nomli davlat stipendiyasini qo'lga kiritish maqsadim ham oddiy orzudan boshlangan edi. Kunlardan birida ijtimoiy tarmoqda universitetimizning rasmiy sahifasini ko'zdan kechira turib, bizdan bir bosqich yuqorida tahsil oladigan talabalarning nomdor stipendiyalarga erishganiga ko'zim tushdi. Ularga bu yutuqlari beradigan imtiyozlar menda havas uyg'otdi. Shu kundan bu stipendiya qanday talabalarga berilishi va buning uchun nimalar qilish lozimligini o'rganib chiqish boshladim. Ushbu stipendiyaning uch asosiy talabi mavjud bo'lib, ularga ko'ra talaba ilmiy, ijodiy sohada faol bo'lishi va chet tillarni bilishi lozim edi.

Stipendiat bo'lish ishtiyoqida yonib turgan talabalarga o'zimizning tajribamdan kelib chiqib, quyidagi tavsiyalarni bergan bo'lar edim:


## 1. Harakatni bugun, kerak bo'lsa, hoziroq boshlang.

Biror katta maqsadga bir kunda erishib qolish mumkinligi haqiqatdan ancha yiroq. Muvaffaqiyatning zahirida ba'zida yillab qilingan so'y-harakat va qator uyqusiz tunlar yotadi. Stipendiat bo'lishni maqsad qilgan talaba ham ikki-uch o'quv yilida qilgan mehnatlarining mevasini teradi. Bu vaqt mobaynida o'z yo'nalishi bo'yicha ilmiy sohada izlanishlar olib borishi, ya'ni ilmiy maqolalar yozishi, ilmiy konferensiya va fan olimpiadalarida ishtirok etishi zarur. Sanab o'tilgan ishlarning barchasiga ulgurish uchun esa "bagaj"ni har kuni sekin-astalik bilan boyitib borish zarur.



INSON O'Z AQLIGA SIG'DIRA OLGAN VA XAYOL QILGAN HAR QANDAY MAQSADGA ERISHA OLADI.

NAPOLEON XILL



## 3. Albatta, ustozingiz bilan birga ishleng.

Ilmiy sohani yo'l boshchi sifatida sizning xatolaringizni tuzatib, to'g'ri ko'rsatma berib turadigan ilmiy rahbarsiz olib borish talaba uchun qiyin. Shu sababdan men ham ustozim E. Rahmatovga o'z maqsadimni bildirib, bu yo'lida ulardan ko'p maslahat va yordam so'raganman. Ilmiy rahbarsiz harakatlanish orqali maqola va risolalar yozishda hamda ularni chop ettirishda ko'plab qiyinchiliklarga uchrashingiz mumkin.

## 4. Xorijiy tillarni o'rganing.

Nizomda ko'rsatilganidek MDH davlatlarida davlat tili sifatida tan olinmagan tillardan birortasini mukammal bilish stipendiat bo'lishning yana bir talabidir. O'zingiz qiziqqan biror tilni, albatta, o'rganing.

## 5. Ilm olishdan tashqari ijtimoiy faolligingizni ham namoyish eting.

Bilim olishdan bo'sh vaqtlari universitet hayotini boyitishga hissa qo'shib turadigan, turli fan olimpiadalarini, tanlov-u turnirlarida o'rinni olib, universitetning dovrug'ini yuksakka ko'taradigan talabalar e'zozlanadi. Sababi bu kabi talabalar "g'oyalar generatori" bo'lishlari bilan birga, shijoat va g'ayratlari bilan o'z tengdoshlarini ham faollikka chorlab turishadi.

## 6. Hammasiga ulguring!

Nechog'li mushkul bo'lmasin, siz yuqorida sanalgan barcha ishlariga ulgurishga harakat qiling. Vaqtingizni rejalashtiring. Aynan rejalashtirilgan kun tartibi va samaradorlik koeffitsiyentining yuqoriligi, sizni muvaffaqiyat sari yetaklaydi.

## 7. Kuchli "portfolio" muvaffaqiyat kaliti.

Stipendiatlarni saralab oluvchi komissiya oldida, siz emas sizning shu yillar davomida to'plagan "portfolio"ngiz so'zlaydi. Ya'ni sabr ila kun sayin siz to'plab kelgan "bagajingiz" sizning xarakteristikangizni tavsiflab beruvchi dalil sifatida xizmat qiladi. Bular sizning diplomlaringiz, sertifikatlaringiz, faxriy yorliq, tashakkurnoma, chop ettirilgan maqolalaringiz to'plamidir.

Talabalarga stipendiyalar berish to'g'risidagi nizom shu yil yangilangan ko'rinishda tasdiqlandi. Endilikda talabalar nomdor stipendiyalarni 3-bosqichda ham qo'lga kiritishlari mumkin, bu esa ularga kelgusi yil, ya'ni 4-bosqichda takroran harakat qilib ko'rish imkonini beradi. Fikrimcha, davlat stipendiyalari alochi talabalarga berilishi mumkin bo'lgan ulkan rag'batdir.

Nomdor stipendiyalarni qo'lga kiritgan talaba nafaqat har oy oshirilgan tartibda stipendiya oladi, balki o'z yo'nalishi bo'yicha magistratura bosqichiga imtihonsiz va budget asosida imtiyozli qabul qilinadi. Qolaversa, o'qishini xorijda davom ettirmoqchi bo'lgan stipendiat talabalarga saralash jarayonida ustunlik beriladi.

**Mushtariybegim RASHIDOVA,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

## 2. Baholaringizga e'tiborli bo'ling.

Stipendiatning eng birinchi va eng muhim xislati - bu a'lo o'qish. Uning a'lodan pastroq o'qishga hech ham haqqi yo'q. Saralash jarayonida tengdoshlari orasida o'z bilim va tirishqoqliq hamda imtihonlarni doimo a'lo baholarga topshirishi bilan ajralib turadigan talabalarga ustunlik beriladi (hujjatlarga ilova qilinadigan talabani fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi aks etgan reyting daftarchasidan nusxa bunga asos bo'lib xizmat qiladi).

"El-yurt umidi" jamg'armasi tomonidan 2022-yil uchun stipendiyalar ajratildi.

eng nufuzli xorijiy davlatlarda bakalavriat ta'lim dasturi uchun

120 o'rin

magistratura ta'lim dasturi uchun

180 o'rin

doktorantura ta'lim dasturi uchun

120 o'rin

jami 420 o'rin



# SINOVLAR ORALAB YORQIN KELAJAK SARI

Inson hayotda turli sinovlarga duch keladi, og'ir kunlarni boshidan o'tkazadi. Unga berilgan sinovlarni chidam va bardosh bilan yenga olgan inson matonat timsolidir. Oramizda hayotini o'rmaq qilib ko'rsatsa arziydigan shunday odamlar juda ko'p. 1991-yili Surxondaryo viloyati Termiz shahrida dunyoga kelgan Dilfuza Salomova ulardan biri.

Dilfuza bir ko'zini parda qoplagan holatda dunyoga kelgan. Ko'z gavharidagi pardani olib tashlash uchun 2 yoshdan 4 yoshgacha Toshkentda va chet elda to'rt marta jarrohlik amaliyotini boshdan o'tkazdi. Dastlabki operatsiya qammasiz bo'lib, Dilfuzaning bir ko'zi butunlay ko'rmay qoladi. Bu jarrohlik amaliyoti uchun Rossiya davlatiga borgani ma'lum bo'ladi.

Ko'zidagi nuqson sabab Dilfuza tengqurlaridan zaifroq edi. Hatto I guruh nogironi bo'lgan qizni nohaqliklar sabab II guruh nogironi toifasiga tushirib qo'yishdi. Ammo jussasi kichik qiz hayotning bu yoziqlariga taslim bo'lmadi, o'z oldi-

ga ulkan maqsadlar qo'ydi. Ota-onasi bir xonali kichkina kvartirada yashasa-da, qizi uchun hamma narsaga tayyor edi. Otasi davlat idorasida kotib, onasi esa maktabda o'qituvchi edi. Ular nogironlik nafaqasini olishni ham istamagan.

*"Ota-onamning men uchun qayg'urishi, har qadamimda yaxshi insonlar uchrangani hamisha menga kuch bergan"*, deydi qahramonimiz.

2012-yili oliy ta'lim olish uchun davlat imtihonlariga hujjat topshirish vaqtida nogironligi to'g'risida ma'lumotnoma olib kelsa, o'qishga kirishda imtiyoz berilishini aytishganda Dilfuza nogironligi haqidagi hujjatni e'tiborga olmasligini so'raydi. Vaholanki, shu yili u qo'shimcha darslarga ham qatnay olmagan, qishloqdan kelgan buvisiga qarar, uyga yordam bo'lsin deb tikuvchilikni ham o'rgangan edi.

Shuncha yumushlardan vaqt ajratib, o'z ustida ishlay olgan Dilfuza shu yili Termiz davlat univer-

“

KO'Z GAVHARIDAGI PARDANI OLIB TASHLASH UCHUN 2 YOSHDAN 4 YOSHGACHA TOSHKENTDA VA CHET ELDA TO'RT MARTA JARROHLIK AMALIYOTINI BOSHDAN O'TKAZDI.


sitetining boshlang'ich ta'lim yo'nalishiga grant asosida o'qishga kirdi!

Universitetda ham tirish qoqligi, intiluvchanligi bilan ajralib turar edi. O'qish davomida guruhdagiarga yetakchilik qildi. O'qishni imtiyozli diplom bilan tugatdi. Ishga kirdi.

*"Men hech qachon o'zimni jismolan o'qiz deb hisoblamayman. Alloh meni sevishini har qadamimda his etaman. Har safar ibodatga bosh qo'yganimda o'zgacha bir taskin topaman. Bular men uchun sinov. Sinovlarni yengdirmamki, shunday baxtga muyassar bo'ldim"*.

Hozir qahramonimiz magistratura ta'limini tugatish arafasida. U 2021-yili oila qurdi. Ammo shu yili otasini yo'qotdi. Shunga qaramay harakatda davom etmoqda. O'z oldiga katta maqsadlar qo'yishni, doim olg'a intilishni unga mehribon otasi o'rgatgan edi.

Muhammadshukur  
MUHAMMADJONOV



Bir kishi tuyasini sotmoqchi bo'lib bozorga bordi. Lekin juda katta narx so'ragani bois, xaridorlar: "Voy-bo", qimmat-kul!" - deya qaytib keta boshlashdi. Shunda sotuvchi:

- Bu oddiy tuya emas, "uh", desangiz yuradi, "uh-uh", desangiz chopadi, "omin", deganingizda to'xtaydi, - dedi.

Bir zumda tuyaning atrofini qiziquvchilar o'rab oldi. Ulardan biri: "Avval sinab ko'raylik, aytganingiz rost bo'lsa, men sotib olaman", deya tuyaga mindi va "uh", deyishi bilan tuya yurib ketdi, "uh-uh", deganida chopishni boshladi. Odamlarning hayrat bilan kuza-

tayotganlarini ko'rib hayajonda qolgan odam tuyani to'xtatadigan so'zni unutil qo'ydi. Tuya esa bu vaqtda chopa-chopa jarlik yoqasiga kelib qolgandi. Bir qadam tashlasa, bas, jarlikka uchib tushishlari muqarrar bo'lib turgan paytda, odamning esiga tushib "omin", deb baqirib yubordi. Tuya to'xtadi. Shu asnodda halokatdan omon qolgani sevinchi bilan yana "uh-h-h" deb yubordi. Tuya harakatga tushdi-yu, ikkovi ham jarlikka quladi.

Hikoyadagi tuya singari, nafs ham qancha insonlarga "uh" degizib, o'z yo'lida davom etaveradi. Bandaning: "Uh, nihoyat nafsimning tug'yonlaridan qutuldim", deyishi esa o'zini ma'naviy jarlik tomon otish bilan barobardir.

"Ibratli hikoyalar" kitobidan.

## BIR KUNDA

### UCH MARTA HOSIL BERADIGAN DARAXT

Anushervon bir kuni ov bahonasida aylanib yurar ekan, yong'oq ekayotgan kekxa bir cholni ko'rib qolibdi.

- Hoy, otaxon, nima qilayapsiz?, - degan ekan, chol:

- Yong'oq ekyapman, - deb javob beribdi.

- Yong'oq kech hosilga kiradi. Shunday ekan, u qachon voyaga yetadi-yu, siz qachon uning mevasidan bahramand bo'lasiz?

- Men bu daraxtlarni o'zim uchun emas, orqamda qolayotganlar uchun ekyapman. Chunki boshqalar ekkani biz yeganimiz kabi, biz ekan daraxtdan ham boshqalar bahramand bo'lishadi.

Cholning javobidan nihoyatda ta'sirlangan Anushervon unga ming tanga in'om qilibdi.

- Siz menga mehnatingning samarasini ko'rasanmi-yo'qmi degan edingiz, - debdi shunda qariya lutf qilib. - Ko'rib turganingiz kabi, hech kimning daraxti menikchalik tez hosil bermagan.

Anushervon uning topqirigidan xursand bo'lib, yana ming tanga beribdi.

- Boshqalarning daraxti bir yilda bir marta hosil bersa, podshohi olamning nazari sharofati bilan mening daraxtim ikki marta hosil berdi, - debdi bunga javoban chol.

Cholning donoligiga qoyil qolgan Anushervon yana ming tanga ehson qilibdi.

"Mo'tabar qissalar va ibratli hikoyalar" kitobidan.

## AHMAD YASSAVIY



Nafs yo'lig'a kirgan kishi rasvo bo'lar,  
Yo'dan ozib, toyib, to'zib gumroh bo'lar.  
Yotsa, qo'nsa shayton bila hamroh bo'lar,  
Nafsnı tepkil, nafsnı tepkil, ey badiqirdor.



**MFaktor** – O‘zbekistonda biznes muhitini yangilash va kengaytirish, tadbirkorlikka oid bilimlarni faol targ‘ib qilish, tajribali insonlar va biznesga endi kirib kelayotganlar, o‘z muammolariga yechim izlayotganlar o‘rtasida ko‘prik bo‘luvchi ilm platformasini yaratish maqsadida tashkil etilgan loyiha.

**MFaktor** ilk bora 2017-yil avgust oyida YouTube’da namoyish etilgan bo‘lsa, 2018-yili 3-mart kuni Toshkent telekanalida efir yuzini ko‘rdi. Dastlab ko‘rsatuvlar Toshkent telekanali va YouTube orqali namoyish etilgan bo‘lsa, keyinchalik diqqat to‘laqonli YouTube platformasiga qaratildi.




## MFAKTOR - MUVAFFAQIYAT VA MAG‘LUBIYAT OMILLARI

Loyiha boshlanganiga 5 yildan oshgan bo‘lsa, hozirgacha YouTube ijtimoiy tarmog‘ida 350 mingdan ortiq obunachilarga ega bo‘lib, YouTube kumush tugmasi, "Yil brendi", "Eng yaxshi biznes maktab" kabi bir qancha e'tiroflarga sazovor bo‘ldi. MFaktor loyihasi bu bilan to‘xtab qolmaydi, u kelgusida ham jamiyatga manfaatli ilmlarni ulashishda davom etadi.

**MFaktor** loyihasiga aka-uka tadbirkor - Hasan va Husan Mamasaidovlar mamlakatimizda bilim, qadriyat atrofida insonlarni bir joyga yig‘ish, yurtimizdagi tadbirkorlar sonini yanada oshirish, o‘zbek xalqiga muvaffaqiyatli insonlarning tajribalarini ko‘proq ulashish maqsadida asos solishgan.

+99899 802 00 88

[YouTube](#) [Facebook](#) [Instagram](#) [Twitter](#) [LinkedIn](#) [Globe](#) MFaktorUz



## YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:  
Hamza  
ABDULLAYEV

**Muassis:**  
O‘zbekiston yoshlar ittifoqi  
Markaziy Kengashi

**Bosh hamkor:**  
O‘zbekiston Respublikasi  
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:  
Iqbol PARDAYEVA

Musahhihlar:  
Shahribonu RAHMATOVA,  
Qirmizoy HAKIMOVA

Gazeta O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro‘yxatdan o‘tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida teritil va saqlaniladi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko‘chasi, 32. Telefonlar: (7) 233-22-16, (7) 238-79-95.

"Sharq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshqaruv xonasida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi - 2 bosma taboq. Korxonalar manzili: Buyuk Turon ko‘chasi, 41. Indeks: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-455, Adadi - 10573. Bosishga topshirish vaqti - 21.00. Topshirildi - 20.00.

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



1 2 3 4 5 6